

“XOTIN DUSHMANI” ROMANIGA TAVSIF

JDPI O‘bek tili va adabiyoti

fakulteti talabasi

Abduvaliyeva Ra‘no

Rashod Nuri Guntekin qalamiga mansub “Xotin dushmani” (yoxud Badbashara haqida roman) asari boshqa asarlar qatori o‘z muxlislariga ega asardir. Men bu asar haqida umuman oldin eshitmagan edim.. Bir kuni domilamiz Dilnavoz opa jahon adabiyotidan istagan asarlaringizni o‘qib topshiringlar degandilar. Kutub xonaga kirdim va kitob izladim. Tokchanning burchagida shu romanni ko‘rib qoldim. Hayotimni butunlay bu asar o‘zgartirib yubordi. Boshidan 5-6 bet o‘qidim Uncha qiziqmadim. Lekin o‘qigan sari bu asarga qiziqqa boshladim. Uning syujeti boshqa asarlarga umuman o‘xshamaydi. Asarni nomidan oilaviy mavzuga bag‘ishlangan, ayollarni yomon odatlariga bag‘ishlangan deb o‘ylagandim. Lekin voqealar umaman boshqacha ekan. Asar maktub usulida yozilgan. Asarda Sora ismli bir go‘zal qizning o‘chi va Xomongolos laqabli bir maxluqsifat, qalbsiz odamning unga ko‘ngil qo‘yishi juda chiroyli tasvirlangan. Sora juda chiroyli, mag‘rur qiz. Uning yoshi 26 da lekin hammaga 22 yosh deb tanishtiradi. U shu yoshgacha qancha go‘zal yigitlarni rad etgandi.

U hech kimni sevmagan. Bundan o‘zi ham hayratlanar edi U Adnan podshoning yagona qizi. Balki yaqinlari doim uzoqda yurgani sababli zerikib shumlikar qilgandir. Ayyorligi sababli otasini yoniga ya'ni Arzurumga bormay, qishloqqa to‘gavachchasinikiga bordi. U yerda ajoyib sarguzashti boshlandi. O‘sha qishloqda uni tabarruk bildilar, e‘zozladilar. U juda baxtli. Uni go‘zalligini qishloq ahli tinmay maqtashar edi Sorani hatto yaqinda tog‘asining kuyovi bo‘lishi kerak bo‘lgan Ramzibey ham sevib qoladi. Bunda Soraning ham qo‘li bor edi. Ramzibey unga togavachchasini uchratmaganda sevgi nima ekanligini bilmasligini aytgandi. Bu gapi Soraning g‘ururiga tegadi va shu gapi uchun undan o‘ch oladi. Dunyoda

o'chdan yomon narsa yoq chunki ko'zingizga hech narsa ko'rinmaydi .Lekin kech bo'lganini tushunib yetasz. Sora ham shunday bo'ldi.Singlisidek bo'lib qolgan qizning baxtini buzganini tushunib yetdi .Lekin ancha kech qolgandi .Endi Ramzibeydan o'zini olib qochar u bilan shaharda sayr qilmay qo'ygandi.U dunyoda Basimadan ham boshqa qizlar borligini tushuntirib qo'ymoqchi edi. Lekin xato qilganini tushunib yetdi. Bukrini go'r tuzatar deganlaridek u yana bir insondan o'ch olishga bel bog'ladi Bu inson Xomongolisdir. U inson haqida juda ko'p yomon hikoyalar eshitadi.

Odamlar uni maxluq, yuraksiz, qalbsiz bir robot kabi ta'riflashdi .Haqiqatdan ham uni ko'rib Sora bularning hammasi rostligiga ishonadi.U insonni qishloqdagilar xotin dushmani ekanligini ,ayollarni juda yomon ko'rishini ,ayollarni juda qattiq haqoratlar bilan yerga urishini eshitadi.Undan o'ch olmoqchi bo'ladi .Uning ko'ngliga muhabbatni solib, keyin uni tashlab ketib barcha ayollar nomidan o'ch olmoqchi bo'ladi. Uni taniydiganlar uning sevgi desa ko'ngli aynishini aytishadi lekin Sora kurashda g'olib chiqishiga ishonadi. Xomongolis juda kuchli ,baquvvat ,sportning har sohasida odamlarni ortda qoldirardi. Lekin u juda xunuk edi .Uni yoshligida odamlar maymunning bolasi, iblisning bolasi, xudo qarg'agan bola deyishardi.U oilada ham mehr ko'rmadi. Shuning uchun balki unda qalb yoqdir.Mehr nimaligini bilmay o'tgan insonda qanday qalb nima qilsin? Sora unga hech kim bermagan mehrni berdi.Uni go'zalligi uchun emas mehri uchun sevib qoldi.Bu mehr uning toshyuragini eritdi va muhabbatni quydi.U Sorani qancha haqorat qildi ,yerga urdi lekin Sora indamadi.U bilan doim birga bo'ldi .Bor e'tiborini unga qaratdi. Xomongolis uni sevib qolgan bo'lsa ham unga sezdirmadi.

Sorani haqorat qilaveradi.Sora ham maqsadiga yetish yo'lida qattiq haqoratlar eshitsa ham qaytmaydi.Xomongolis butunlay taslim bo'lgandi .Bu ikkisi ham irodasi kuchli indonlar deb o'ylayman .Ichidagi hislariga qarama -qarshi chiqish ham uncha -muncha odamlarning qo'lidan kelmaydi.Bor vujudi bilan sevib qolgan insonini qattiq haqoratlar qilishga katta iroda kerak emasmi ?Afsuslar bo'lsinki Sorani maqsadini sezib qoladi.Juda qattiq azoblanadi ,dunyo ko'ziga tor

ko‘rinadi.Umrda bir insonni sevib qolgandi.Lekin Soradan hafa emas,aksincha , unga rahmat aytadi. Agar Sora unga yolg‘ondan bo‘lsa ham mehr ko‘rsatmaganda bu dunyodan hissiz , sevgi degan baxtni tuymay o‘tib ketardi .Sora tufayli umrida his etmagan mehrni his etdi .Soraga sevgisini aytmadi.Agar aytsa, nimalar yuz berishini bilardi.Farishta deb yurgan insoni uni ustidan qanchalik mazax qilganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rardi .

U buni hoxlamaydi .Undan ko‘ra o‘limni afzal ko‘radi .O‘zini mototsiklda jarga tashlab, nimta -nimta bo‘lib halok bo‘ladi. Bu asardan keyin o‘zimga katta xulosa oldim.Biz yomon deb yomon deb yurgan insonlarimiz yomon bo‘lishiga o‘zimiz aybdor emasmizmi ? Ular umrida shirin so‘z o‘rniga haqorat ,mehr o‘rniga shavqatsizlikni his etib yashaganlar.Ular katta bo‘lganida qanday yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayadilar .Ularda insonlarga mehr o‘rnini nafrat egallamaydimi ?

Kelinglar ,bir - birimizga mehrli ,shirin so‘z bo‘laylik .Yomon insonlarga ham mehr bilan javob beraylik,ularni toshyuragini eritaylik .Birgalikda harakat qilaylik.Balki ,shunda yer yuzida toshyurak insonlar ham ,yovuzliklar ham, fojialar ham bo‘lmasdi.